


2021- yil yanvar-sentabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyatida jami 5 174,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 116,0 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
soni**

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,5 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 363 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi 3,4 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 52,5 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 47,8 % ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.10.2020- yil	01.10.2021- yil	
Samarqand viloyati	3 025	3 388	363
Samarqand sh.	1 050	1 190	140
Kattaqo'rg'on sh.	104	120	16
tumanlar:			
Oqdaryo	138	150	12
Bulung'ur	69	80	11
Jomboy	115	137	22
Ishtixon	146	153	7
Kattaqo'rg'on	118	138	20
Qo'shrabot	67	73	6
Narpay	84	85	1
Payariq	241	278	37
Pastdarg'om	311	326	15
Paxtachi	63	72	9
Samarqand	131	148	17
Nurobod	43	61	18
Urgut	214	240	26
Toyloq	131	137	6



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.09.2021- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (35,0 %), Pastdarg'om (9,6 %) va Payariq (8,3%) tumanlaridir.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **675,9** so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 116,7 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 13,3 % ni tahskil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, % da



Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamai qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,3** %i yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **48,4** %ni), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,8** %i), Kattaqo‘rg‘on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 2,7 %i), Bulung‘ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **7,3** %i), va Pastdarg‘om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,7**%) tumanlarga to‘g‘ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-sentabr
- 2020- yil yanvar-sentabr


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **65,4** % i bajarilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylari ko'satkichiga nisbatan **5,0 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,3 %** ni tashkil etgan holda **3 384,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **21,5%** ni tashkil etib, **1113,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **92,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **149,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **70,2 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 024,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **124,9 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,1%** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2021- yil
yanvar-sentabr



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- yil
yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-sentabr

71,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **71,0 %** yoki **3 670,5 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

17,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **650,3 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,7 %** ni tashkil etdi.

53,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 958,6 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,4%** ni tashkil etdi.

28,9 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1 061,6 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,9 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-sentabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	5 174,1	116,0	3670,5
Samarqand sh.	1 654,0	111,5	1173,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	137,5	106,0	97,5
tumanlar:			
Oqdaryo	362,0	153,9	256,8
Bulung‘ur	191,6	127,2	135,9
Jomboy	209,3	170,4	148,5
Ishtixon	248,7	111,4	176,4
Kattaqo‘rg‘on	143,8	109,0	102,0
Qo‘shrabot	134,6	111,7	95,5
Narpay	137,9	108,9	97,8
Payariq	347,3	109,3	246,3
Pastdarg‘om	382,8	105,5	271,5
Paxtachi	139,0	105,4	98,6
Samarqand	343,7	114,0	243,8
Nurobod	93,1	107,5	66,0
Urgut	262,3	107,0	186,0
Toyloq	386,3	132,9	274,0

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-sentabr

3,5




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,6



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

76,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

2021- yil yanvar-sentabr

2,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

52,5



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

44,7



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **18,3** % ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,7** % punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,6** % punktga kamaydi, **47,9** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-sentabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,3** % punktga ko'payib, **33,5** % ni tashkil etdi.



2021- yil
yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **8,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **28,9 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **91,1 %** (**30,0 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %**ni tashkil etdi.



2021- yil
yanvar-sentabr


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **4,3 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **16,5 %** punktga kamaydi. **96,4 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **16,5 %** punktga ko'paydi.



2021- yil
yanvar-sentabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-sentabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
1654,0

1

2

Toyloq
386,3

Pastdarg'om
382,8

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
93,1


1

2

Kattaqo'rg'on sh.
137,5

Paxtachi
139,0

3





SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

**2021- yil
yanvar-sentabr**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari